



KITOBXON MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA JAMIYATNING ROLI.

Ro'ziyeva Nilufar Pardayevna

Ilmiy rahbar:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Kutubxona axborot faoliyati"

kafedrası katta o'qituvchisi

Sunnatillayeva Aziza

"Kutubxona axborot faoliyati" fakulteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15600020>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma'qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

KEYWORDS

kitobxonlik madaniyati,
jamiyat roli, kutubxona,
mutolaa madaniyati, ta'lim
muassasalari, yosh avlod,
rag'batlantirish.

ABSTRACT

Maqolada kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, jamiyatdagi ta'lim muassasalari, kitobxonlikni rag'batlantirishdagi tashkiliy-amaliy faoliyat yoritilgan. Tahlillar va tajribalar orqali kitobga, kitobxonlikka bo'lgan mehr bolalikdan rivojlana boradi. Oila muhitida mutolaa bo'lgan qiziqishning shakllanishi, unga doir loyihalar, dasturlar orqali kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish kabi masalalar maqolada yoritib berilgan.

Bugungi texnika va globallashuv asrida ma'naviy va ma'rifiy rivojlanishning asosiy yo'li — kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish. Kitob — bu moziyidan xabar beruvchi, ma'lumotlarni esa avloddan avlodga yetkazuvchi, tarix haqidagi bilimni kelajakka eltib beruvchi, ilm-fan haqidagi yangilik va ma'lumotlarni o'zida qamrab etib boruvchi inson mahsulotlarining biri hisoblanadi. Kitob inson tafakkurini charxlab, barkamol inson sifatida jamiyatdan o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Kitob O'qish orqali inson shaxs sifatida rivojlanadi, kamol topadi. Bu esa o'z o'rnida yosh barkamol avlodning jamiyatimizda to'g'ri yo'l tutishiga va o'z o'rnini munosib topishiga yordam beradi. Yosh avlodning mutolaa madaniyatini shakllantirishda oila va jamiyatning roli ham beqiyos. Jamiyat oiladan boshlanganidek, kitobsevarlik madaniyati ham mutolaa madaniyati ham oiladan boshlanadi. Oila-kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda asosiy omillardan biri sanaladi. Oila ichida kitobxonlikni targ'ib qilish, bola uchun yaxshi o'rnak bo'lish va o'qishga qiziqtirish jarayoni avvalo ota-onaning ma'uliyatidir. Agar ota-onalar o'zlari kitob o'qib, farzandlariga ham o'qishning ahamiyatini tushuntirsa, bu bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi. Shuningdek, bolalikdan kitob o'qishga jalb qilish, ularga yaxshi o'qish muhitini yaratish, kitoblarni esa ota-ona tomonidan tavsiya qilish, o'qish bilan bog'liq o'yinlar tashkil etish kitobxonlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar o'z hayotida kitob o'qish uchun maxsus vaqt ajratib, bolalarigaham kitob o'qishga vaqt ajratishni o'rgatishlari kerak.

Kitobxonlikni targ'ib qiluvchi muassasalar maktablar, kutubxonalar, madaniyat markazlari va boshqa ijtimoiy muassasalar kitobxonlikni rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Maktablarda o'qish klublari va tanlovlar tashkil etilishi, kutubxonalarda bepul kitoblar va o'qish dasturlarini taklif etilishi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ommaviy axborot vositalari va kitobxonlik Ommaviy axborot vositalari, masalan, televidenie, radio, internet va ijtimoiy tarmoqlar ham kitobxonlikni

rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Kitoblar va adabiyot haqida eshittirishlar, kitobxonlik mavzusidagi tv dasturlar va bloglar kitob o'qishni ommalashtirishga yordam beradi. Xususan, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali o'quvchilar o'rtasida kitoblar va adabiyotlar haqida fikr almashish imkoniyati mavjud.

Kitobxon madaniyatini shakllantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Hozirgi kunda jamiyatda kitob o'qishga bo'lgan qiziqish kamaygan va bu ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. O'quvchilar orasida elektron kitoblar va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi, jamiyatda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi kabi muammolar mavjud. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun oilaviy va jamiyatning hamkorligi muhimdir. Shuningdek, kutubxonalar va kitob do'konlarini zamonaviy va interaktiv qilish, raqamli kitoblar va audio kitoblarni kengaytirish ham kitobxonlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Kitobga qiziqishni oshirishning samarali usullari Kitoblar va adabiyotlarni targ'ib qilish: O'quvchilarni kitoblar bilan tanishtirish, adabiyotshunoslik va kitob tanlash bo'yicha seminarlar o'tkazish. Tez-tez o'qish marafonlari va tanlovlar o'tkazish: O'quvchilarni o'qishga qiziqtirish uchun turli marafonlar, konkurslar va o'qish festivallarini tashkil etish. Bepul kitoblar va o'qish dasturlarini joriy etish: Ijtimoiy guruhlarini o'z ichiga olgan bepul kitoblar yoki o'qish dasturlari jamiyatning kitobxonlik madaniyatini rivojlantiradi.[1]

Kutubxonachilik ishini yanada rivojlantirish va o'zgartirish uchun bir qator qaror va qonunlar qabul qilingan. Prezidentimizning 2019-yil 7-iyundagi qabul qilingan qarorlariga binoan "O'zbekiston Respublikasi aholisiga kutubxona-axborot xizmatini ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" qarorga binoan yurtimizda bir qancha kutubxona sohasiga oid o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan sohaning moddiy texnik bazasini mustahkamlash, elektron kutubxona tarmoqlarini yanada rivojlantirish, mutolaa hamda axborot madaniyatini shakllantirish, kutubxona faoliyatini tubdan isloh qilish kabi chora-tadbirlari yurtimizda keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Bundan asosiy maqsad mutolaa madaniyatini, axborot madaniyatini oshirish belgilab olindi. Mutolaa madaniyatini qanchalik erta bolalikdan boshlab o'rgatilsa shuncha yaxshi. Bu yerda bitta muammoga duch kelamiz. Barcha ota-onalar ham mutolaa madaniyatining xil-xususiyatlariga ega bo'lmasligi, bolalarning yoshiga mos kitob tanlay olmasligi, uni o'qish jarayonida esa to'g'ri va ifodali ifodalay olmasligi mumkin. Shu kabi muammolarning sababi ota-onalarning kitob mutolaasi bilan shug'ullanmasligi, bo'sh vaqtlarining yo'qligi, kutubxonachi bilan muloqot qilmasligi, yetarlicha ma'lumotlarning yo'qligi va boshqa turli xil sabablar. Shu sababli ham ota-onalar, maktab, litsey hamda kollej o'qituvchilari, kutubxona ishchi xodimlari bilan ish olib borib, suhbat qurmoq lozim. Bolalarning mutolaaga qiziqmasligining, kitob o'qimasligining yana bir sabablaridan biri jamiyatimizda mutolaaga e'tiborsizlik hamda kutubxona reklamasi yo'lga qo'yilmaganligi, mas'ulyatsizlik ham katta sabab bo'lmoqda.[2]

Mutolaa madaniyatini oshirishda yana jamiyatning ham o'rni beqiyos. Agar har bir inson bo'sh vaqtini bekor o'tkazmasdan mutolaa bilan shug'ullansa, ulardan yosh avlod ham o'rnak oladi, o'rganiladi. Barkamol avlod tarbiyasida esa kitob juda katta xizmat ko'rsatadi. Agar kitobxonalar kitobdan to'g'ri va unumli foydalana olsalar uni hayotda tatbiq qila olishadi. Bu bilan birgalikda, ular bilan mutolaa madaniyatini shakllantirishadi.

Tadqiqotchi va mutaxassislarining fikriga ko'ra, kitob mutolaasi uchun sahar vaqtini tanlagan qulay. Sababi bu paytda inson organizmi uyqudan dam olib turgan, miyya yangi

harakatlarga tayyor, organizm chiniqqan holat bo'ladi. Shuning uchun ham sahar vaqtidagi kitob mutolaasi aqliyotni, xotirani rivojlantiradi, to'liq fikr yuritish va fikrlash uchun ham xizmat qiladi. Kitobxon esa mutoladan biror-bir maqsad ko'zlagan bo'lishi, uni aniq belgilay olishi ham kerak. Shu sababli ham ko'p o'qib tushunmagandan ko'ra, kam o'qib tushungan, bilimga ega bo'lgan ma'qul hisoblanadi. Yaxshi tanlanmagan kitobni mutolaa qilish, insonni kitob mutolaasidan bezdirib qo'yishi, kitobni mutolaaga qiziqishdan sovutib qo'yishi mumkin. Kitoblar orasidan o'ziga mosini tanlab o'qish, har kungi mutolaaga odat qilishni yo'lga qo'yish darkor.[2]

Ko'pgina oilalarda kitobxonlik madaniyati shakllangan bo'lsa, farzandlarning kelajagi uchun ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar oilada ota-ona kitob mutolaasiga har kuni biroz vaqt ajratsa, bu tabiiy holga aylanadi va shu bilan bir qatorda bu bola ongiga ham singadi. Shundan ham kelib chiqadiki, kitob mutolaasi eng avvalombor oila muhitiga, otalarimizning ilm, madaniyatiga bog'liq.

Kutubxonalar — insonni kitoblar dunyosi bilan bog'lovchi yagona ma'naviyat o'chog'i. Jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish uchun keng ko'lamdagi ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, televideniye, internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar muhim vosita bo'la oladi. Ijtimoiy reklama roliklari tufayli aholining hamma qatlamlari orasida kitob o'qishga bo'lgan muhabbatni uyg'otish mumkin.[3]

Yoshlar orasida "Yosh kitobxonlar tanlovi", "Bir million kitobxon" loyihalari kitobxonlik madaniyatini oshirmoqda, shakllantirmoqda.

Kitobxonlik madaniyati — odamlarning kitobga bo'lgan qiziqishi, uni o'qib tushunib, tilga olib, rivojlantiradi. Mutolaa madaniyatini, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda aytib o'tganimizdek, birinchi navbatda oilaning, jamiyatning o'rni benihoyat katta. Jamiyat esa bu qarashlarni, fikrlarni, qarorlarni shakllantiradi.

Har bir inson bu hayotda yashar ekan albatta, mutolaa bilan shug'ullanmog'i kerak. Zero kitob inson tafakkurining, ongining qayrog'idir. Mutolaa orqali inson dunyoni anglaydi. Mutolaa madaniyatini rivojlangan oilalardan jamiyat ham rivojlanadi.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ruzieva N. P. From the history of Uzbek librarianship //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 6. – C. 397-402.
2. Davlatov Soibnazar Xo'janiyazovich. (2024). OLIY TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MENEJMENTNING O'RNINI VA AHAMIYATI. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI, 2(9), 135–139. Retrieved from <https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/1750>
3. Цай И. К., Артемьева Е. Б. Развитие информационно-библиотечной системы Узбекистана в контексте исторических трансформаций // Труды ГПНТБ СО РАН. 2019. № 1. С. 22-25.
4. Lyudmila Nigmatovna Muminkhodjaeva. (2024). INTENSIFICATION OF THE PROCESS OF TRAINING SPECIALISTS IN CULTURAL UNIVERSITIES THROUGH THE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13757191>
5. Grebenyuk M. V. The Emergence, Development, and Transformation of Library Marketing in European Countries //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 52. – C. 116-122.

6. Гребенюк, М. В. Информационные технологии в образовании: взаимодействие педагога с информационно-коммуникационными технологиями и совершенствование информационной компетентности / М. В. Гребенюк // Информационные технологии. Проблемы и решения. – 2020. – № 3(12). – С. 36-40.
7. Martin V. G. YOUTUBE AS A MARKETING TOOL IN PROMOTING LIBRARY SERVICES // PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – Т. 3. – №. 8. – С. 116-126.
8. Mirsultanovich I. M. INSON KAMOLOTIDA-KUTUBXONA VA MUZEYLARNING O'RNI // ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 53. – №. 1. – С. 38-41.
9. Матмурадова М. И., Бердиева З. Ш. ПЕРЕВОДЫ ПРОИЗВЕДЕНИЙ МАХТУМКУЛИ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК // Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-1. – С. 870-873.
10. Матмурадова М. И. МАЪЛУМОТНОМА НАШРЛАР, УЛАРНИНГ АХБОРОТ-БИБЛИОГРАФИЯ ХИЗМАТИДА ТУТГАН ЎРНИ // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 31. – №. 2. – С. 22-29.
11. Isxakov M. YAKKA TARTIBDA KUTUBXONA-AXBOROT XIZMATI KO 'RSATISHNING DOLZARB VAZIFALARI // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – 32 (1). – P. 94-103.
12. Гребенюк М. В., Расулова Г. Х. СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ МАССМЕДИАЖ БУКТЬЮБ-КОНТЕНТ КАК НОВЫЙ ВИД БИБЛИОГРАФИЧЕСКОЙ ПРОДУКЦИИ // AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – Т. 3. – №. 9. – С. 1-5.
13. Гребенюк М. В. Видеохостинг как маркетинговый инструмент в продвижении библиотечных услуг // Вестник БАЕ. – 2024. – Т. 51. – С. 2.
14. Davlatov S. Spiritual Heritage: Cultural Life and Libraries in the Kokand Khanate // ACUMEN: International journal of multidisciplinary research. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 296-300.
15. Nurbabayeva D. KUTUBXONA XIZMATLARI: RAQAMLI KUTUBXONALAR VA ELEKTRON RESURSLAR // Теоретические аспекты становления педагогических наук. – 2024. – Т. 3. – №. 21. – С. 126-130.
16. Nurbabayeva D. FOYDALANUVCHILARGA NASHR MAHSULOTLARIDAN VA KUTUBXONA-AXBOROT MUASSASALARIDAN TASHQARI XIZMAT KO 'RSATISH // International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 1225-1227.